

## HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA MODIFIKATSIYA HODISASI

**Zokirova Nigora Qosimjonovna**

Namangan davlat universiteti Lingvistika: o‘zbek tili 2-kurs magistranti

***Annotatsiya:** ushbu maqolada tilshunoslikdagi modifikatsiya terminiga izoh berilgan. Turli til birliklarining modifikatsiyada poetik matnlar orqali misollar bilan yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** modifikatsiya, predikatsiya, poetik matn, sintaktik bog‘lanish.*

Modifikatsiya termini tilshunoslikka Amerika deskriptivistlari tomonidan olib kirilgan bo‘lib, u transformatsion-generativ lingvistika orqali kognitiv tilshunoslikka kirib keldi.<sup>1</sup>

Modifikatsiya – lotincha predmet yoki hodisaning asl mohiyati saqlagan holda shaklan o‘zgarishi yoki o‘zgartirishi.<sup>2</sup> Shunday o‘zgarishga uchragan predmet yoki hodisa ko‘rinishi. Kognitiv tilshunoslikda bu termin so‘zlovchi tomonidan nutq mahsuloti yaratilayotgan jarayonda borliqdagi voqea-hodisa yoki narsaning nutq momentdagi holatidan kelib chiqib, qandaydir yangi belgi, xossa-xususiyatni qo‘shish, narsa voqea yoki hodisa haqida yangi axborotni kiritish jarayoniga aytiladi.

*Chiroyi gul – modifikatsiya*

*Gul chiroyli – predikatsiya*

*Oy yuzingga ko‘kdagi murhuyu gulpon o‘xshamas,*

*Qomatingga navdayu sarvi xiromon o‘xshamas.*

Oy yuz sifatlovchi, sifatlanmish ma’nosi atributiv aloqa. *Yuzing oy.* Yuzing ega oydir kesim – predikativ aloqa

Ma’lumki, sintaktik aloqaning an’anaviy tilshunoslikda 3 turi ko‘rsatiladi.

1. Bitishuv – chiroyli qiz.<sup>3</sup>
2. Boshqaruv – telefonda suhbatlashmoq.
3. Moslashuv – mening onam.

<sup>1</sup> Umrzoqova Sh. Xalqaro ilmiy konferensiya N1 2022 - YIL

<sup>2</sup> O‘zbek tili izohli lugati Moskva “ Rus tili” nashriyoti 1981 y.

<sup>3</sup> Uzoqovq SH . ko‘rsatilgan manba 3- bet

Modifikatsiya bu aloqalardan faqat moslashuv va bitishuvda kuzatiladi. Modifikatsiya hodisasi ijodkor g'oyasi, mahorati, ijodiy-individual yondashuvlari bilan bog'liqdir. Ushbu termini adabiyotshunos Quvonchbek Mamiraliyev quyidagicha izohlaydi: "**modifikatsiya** lotincha so'z bo'lib, *me'zon, ko'rinish, obraz, ko'chma xususiyat*; "**fasio**" – qilmoq amalga oshirmoq, qayta barpo qilish, yangi xususiyat kasb etish bilan shaklning o'zgartirilishi tushuniladi.

Modifikatsiya jarayoni moslashuv va bitishuvli bog'lanishlarda ifodalanar ekan, biz ham ilmiy ishimiz davomida poetik matnlarda quyidagi modifikatsiyalarni kuzatdik:

### 1. **Sifatdosh+sifatdosh:**

Bu kaftda ko'targan yashnagan tuproq  
Sening nomingdagi kolxoz atalur<sup>1</sup>

### 2. **Ravishdosh+sifatdosh;**

Assalom! Ayt, kimga boshimni egay,  
Kimlarning qo'lini surtay ko'zimga.  
Chorak asr o'ta kelib tirikday,  
Boqib turganing so'lg'in yuzimga.<sup>2</sup> Bu she'riy parchada boqib turganing ravishdosh + sifatdoshli modifikatsiya

### 3. **Sifatdosh+ravishdoshning bo'lishsizlik shakli**

Oramizda seni mo'ysafid  
Ko'rganlarning bilmam nomini  
Kuylab ishqni, tongni muttasil,  
Menga qo'yding umr shomini. Otlashgan sifatdosh ko'rgan, bilmam ravishdoshning bo'lishsizlik shakli orqali ifodalangan modifikatsiya

### 4. **Ot+sifatdosh komponentli modifikatsiya<sup>3</sup>**

Oqar daryolaring hayqirab oqsin,  
O'chgan mash'allarni mardlaring yoqsin.

4. A. Oripov Saylanma oqar daryo 54 tafakkur qanoti tosh 2019  
Poetik matnlarni kuzatishimiz jarayonida ot+sifatdoshli modifikatsiyani ko'proq uchratdik.

Xali oldundadur go'zal kunlarim  
Xali lab tegmagan kugilar olida,  
Yana ko'zlaringda sen bilmagan kun,  
Hamma kunlaringdan go'zalda go'yo.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> Zulfiya . Saylanma. SHarq . Toshkent - 2016

<sup>2</sup> Zulfiya Saylanma. Toshkent – 2016. – B.32.

<sup>3</sup>

<sup>4</sup> Zulfiya Saylanma. Toshkent – 2016. – B.50.

## 5. **Harakat nomi +ot ko‘rinishidagi modifikatsiya**

Uyg‘onish yellari esmoqda takror,  
Tabarruk ajdodlar ruhi senga yor.<sup>1</sup>

## 6. **Ravishdosh+ot**

Bo‘ronga aylanmay shabboda-go‘dak,  
Yuz yil-ku tarixda – qoshing orasi.<sup>2</sup>

## 7. **Ravishdosh +harakat nomi**

She‘ring murg‘ak, lekin diling soz,  
Nafasingda dedingiz, o‘t bor.

Yonib kuylash jarlikka xos,

O‘sgin sovish bilmagin zinhor.<sup>9</sup>

Bu modifikatsiyada yonib ravishdosh, kuylash esa harakat nomidir.

Xulosa qilib shuni aytamizki, o‘zbek tilida modifikatsiya hodisasi Q.Mamiraliyev va SH.Uzoqova tomonidan o‘rganilgan va tahlil qilingan. <sup>i</sup>O‘zbek tilidagi poetik matnlarda kuzatishlarimiz davomida biz modifikatsiyaning sifatdosh+ ot komponentli modifikatsiya moslashuvli birikma bilan birikish turi ko‘plab uchrashini kuzatdik. Bu modifikatsilar ko‘chma ma’no kasb etib, so‘zlarning yangi ma’no qirralarini ochib beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazaryasiga kirish.- Toshkent : Sharq, 2010 .
2. Oripov A Saylanma. Tafakkur qanoti. Toshkent- 2019
3. Aliyeva Sh.Transformatsiyada derivatsiya masalasi// O‘zbek tili va adabiyoti. 2007.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik.-Jizzax: Sangzor, 2006.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati:80000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi- Toshkent
6. Zulfiya . Saylanma. Sharq. Toshkent-2016.

---

<sup>1</sup> **A.Oripov Saylanma. – B.54**

<sup>2</sup> A.Oripov. Ko‘rsatilgan manba, Ko‘rsatilgan bet

<sup>i</sup> Q. Mamiraliyev O‘zbek modern she‘riyatida modifikatsiya .

<sup>ii</sup> SH. Uzoqova Ko‘rsatilgan asar.